№ 5-AMALIY MASHG‘ULOT



Boshlang‘ich sinflarda tayanch fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.

Ishning maqsadi: *boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qishni o‘rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning maqsadlari quyidagilardir:*

- **Talabalarning qiziqishini oshirish:**
  - interaktiv o‘yinlar, animatsiyalar, videolar va boshqa multimedia vositalari orqali ta’lim jarayonini qiziqarli va dinamik qilish;
  - talabalarga kontentlarni mustaqil o‘rganish imkoniyatini berish.
- **Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish:**
  - vizual va audio materiallar orqali talabalarning bilish qobiliyatini osonlashtirish.
  - interaktiv mashqlar va testlar orqali talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini baholash va ularga individual yordam ko‘rsatish;
  - talabalarga bilimlarni o‘rganish tezligiga moslashish imkoniyatini yaratish.
- **Talabalar nutqini rivojlantirish:**
  - Interaktiv o‘yinlar va mashqlar orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish;
  - talabalarga o‘z fikrini ifoda etishga o‘rgatish;
  - talabalarga to‘g‘ri talaffuz qilish va grammatik qoidalarni o‘rgatish.
- **O‘qishga bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish:**
  - Interaktiv o‘yinlar va mashqlar orqali talabalarning o‘qish tezligi va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish;
  - talabalarni matnlarni o‘qish va tahlil qilishga o‘rgatish;
  - talabalarning o‘qigan matnlari yuzasidan savollarga javob berishni o‘rgatish.
- **Talabalar faoliyatini osonlashtirish:**

- o‘quv materiallar tayyorlash, talabalarning bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasini baholash va ta’lim jarayonini boshqarish kabi vazifalarni avtomatlashtirish;
- pedagogning talabalar bilan individual ishlashini tashkil etish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga nafaqat bilim olish, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;
2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Ona tili - nutq: o’qish va yozish sohasidagi ko’nikma va malakalar talabalar faoliyatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o’qish bilan talaba o’zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:

2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;

2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;

3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:

3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;

3.2. talabalarni rajbatlantirish;

3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.

3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. so‘zlarni tuzish, sinonim va antonimlarni topish, so‘zlar ma’nolarini aniqlash kabi o‘yinli elementlarni yarating.

Harflar bilan o‘yinlarga misol:

“Harflar yomg‘iri”: Ekranda turli harflar tushadi va talabalar tomonidan so‘zlar tuzishlari talab etiladi. Bu o‘yin harflarni tez va to‘g‘ri aniqlash ko‘nikmasini rivojlantirishga sabab bo‘ladi (1-rasm).

“Harflar labirinti”: talabalar labirint ichidagi harflarni to‘g‘ri tartibda birlashtirib, so‘zlar hosil qilishlari lozim. Bu o‘yin mantiqiy fikrlash va harflarni farqlash qobiliyatini rivojlantiradi (2-rasm).

“Harfni top”: Ekranda so‘z ko‘rsatiladi, lekin undagi bir harf tushirib qoldirilgan bo‘ladi. Talabalar tushirib qoldirilgan harfni topishlari lozim. Bu o‘yin so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va harflarni farqlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi (3-rasm).






1, 2, 3-rasmlar

2-topshiriq. grammatik qoidalarni o‘rgatish uchun interaktiv o‘yinlar, masalan, so‘z turkumlarini aniqlash, gap tuzish, tinish belgilarini qo‘yish kabi o‘yinli elementlarni yarating.

3-topshiriq. o‘qish tezligi va tushunish qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadidagi o‘rgatuvchi mahsulotlar yarating (PowerPoint misolida).

4-topshiriq.

Topishmoq mazmunidan kelib chiqqan holda uning javobini toping:

Men daraxt shoxida o‘sganman

Mening yomon xarakterim:

Qaerga borsam ham, hammani ko‘z yoshini keltiraman.

(**Javob:...**).

Namunadan kelib chiqqan holda 3 topishmoq ishlab chiqing.

5-topshiriq. Nutqni rivojlantiruvchi dasturiy ilovalarga misol keltiring.

6-tops hiriq. Raqamli hikoyalar yaratish texnologiyasini izohlang.